

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIIYOT-GEOGRAFIYA FAKULTETI**

**5440400-Kimyoyo'nalishi**

**09.425-guruh bitiruvchisi**

**Umarov Ahadjon Xolmatovichning**

**“Kimyodarlarida o'quvchilarni atrof-muhitga ma'suliyatli  
munosabatni shakillantirish”**

**Mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: Biologiya fanlari doktori  
dosent S.M.O'rmonov**

**Farg'ona-2013**

# MUNDARIJA

|  |           |
|--|-----------|
| Kirish.....  | 2         |
| <b>I-bob. Respublikamizda ekologik muammolar va ularni yaxshilash yo'llari.....</b>  | <b>6</b>  |
| 1.1. Respublikamizning ekologik muammolari .....   | 6         |
| 1.2. Farg'ona regionining ekologik muammolari.....   | 8         |
| 1.3. Atmosfera havosiga kimyo korxonalarining tasiri.....  | 14        |
| <b>II-bob. Kimyo darslarida o'quvchilarni tabiatga , atrof- muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish yo'llari.....</b>  | <b>16</b> |
| 2.1 Talim va ekologiya kelajakni asosini belgilaydi.....   | 16        |
| 2.2 Kimyo talimi ekologik mazmunining tuzilishi , o'ziga xos xususiyatlari.....  | 18        |
| 2.3 Maktab kimyo darslarida ekologik meyorlar va ularga rioya qilish yo'llari.....   | 21        |
| 2.4 Kimyoni ayrim mavzularini o'rganishda ekologik talim va tarbiya berish usullari.....   | 24        |
| 2.5 O'quvchilarni atrof – muhitga masuliyatli munosabatini shakllantirishda ekologiyaga oid masalalar yechishni ahamiyati....  | 29        |
| 2.6 Kimyo darslarida ekologik talim va tarbiya berishda Farg'ona viloyati ekologiyasiga oid bilimlardan foydalanish yo'llari.....                                    | 32        |
| 2.7 O'quvchilarda ekologik madaniyat, atrof- muhitga masuliyatli munosabatini shakllantirishda ajdodlarimiz asarlaridan foydalanish.....                             | 34        |
| 2.8 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan foydalanib o'quvchilarda ekologik manaviyatni tabiatga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish..... | 37        |
| 2.9 O'zbekiston da ekologik talim va aholining ekologik madaniyatini, tabiatga masuliyatli munosabatini shakllantirish masalalari.....                               | 41        |
| <b>III-bob. O'quvchilarni ekologik bilimlarini o'rganish yuzasidantajriba-sinov natijalari va uni taxlili.....</b>   | <b>44</b> |
| 3.1 Tajriba-sinov o'tkazish uchun test topshiriqlar tuzish.....  | 44        |
| 3.2 Tajriba-sinov natijalarini tahlili.....  | 48        |
| <b>Xulosa.....</b>   | <b>54</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>  | <b>55</b> |

## **Kirish.**

Ta'lim tizimini islox qilishda "talim to'g'risidagi" qonun[1] va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi [2] muxim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur xujjatlarda ta'lim tizimini bosqichma-bosqich yangilash, xalqaro talablar asosida yangi turdagi ta'lim muassasalarini yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummiy dasturi to'g'risida" gi Farmonida belgilangan ezgu maqsadlar mustaqilligimizning buyuk nishonasidir.[3]Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummiy dasturi tom ma'noda umummiyat dasturiga, ya'ni umumxalq dasturiga aytandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umummiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori kimyo fanining o'qitilishini xam tubdan yangilashni talab etmoqda. Shu munosabat bilan barcha o'quv fanlari qatori kimyo ta'limi oldiga ham aniq vazifalar qo'yimoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi bilan ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan uyg'un rivojlang insonlar bo'lib XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib yetishishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishi o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Shu kunlarda xukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida jami davlat va nodavlat manbalarini xisobga olgan xolda mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi.[4]

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda kimyo fani va sanoatirivojlantishda ulkan yutuqlar qo'lga kiritila boshladi. Jumladan ,Buxoro neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi, Farg'onadagi neftni qayta ishlash zavodining rekonstruksiya qilinishi, SHo'rtangaz kimyo majmuasining qurub foydalanishga topshirilishi, shuningdek bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Zarafshon va Olmaliqdagi kon-metallurgiya zavodlari yoki yaqin yillarda qurub foydalanishga topshirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qo'ng'irotda ishlab chiqarilayotgan jahon standartlariga to'la javob bera oladigan eksportbop kimyoviy maxsulotlar mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining rivojlanishi kimyoviy ta'limni rivojlantirish bilan chambarchas va uzviy bog'liq. Negaki, o'sib kelayotgan

yoshlarimiz orasidan shu sohaning etuk mutaxassislarini tayyorlash ham ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xususan, 2004-2009 yillarga mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturiga muvofiq ,bugungi kelib akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va tabiiy fanlarning o'qitilishi uchun yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlar yoki respublikamizdagi 75 foiz umumtalim maktablarining kimyo-biologiya, fizika o'quv xonalarining xalqaro talablar darajasida qayta qurilishi va laboratoriya xonalarining zamonaviy asbob-uskunalar va reaktivlar bilan ta'minlanishi ham bu sohaga alohida e'tibor berilyotganligidan dalolatdir.

XXI asrga kelib talimning turli bo'ginlarida (maktablar akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oiliy o'quv yurtlari )kimyoviy talimni takomillashtirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. CHunonchi, hozirgi zamon odami qanday kasbni egallashidan qat'i nazar minglab turdagi tabiiy sun'iy va sintetik usullarda olingan oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak va sanoat mahsulotlaridan keng foydalanadi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi, qurilish yoki xalq xo'jaligining zaruriy , ehtiyojbop maxsulotlari ham bugungi kun zamonaviy kimyoviy ishlab chiqarishning maxsulidir.[5]

Mazkur maxsulotlarning kimyoviy tarkibi va xossalarini har bir kishining bilishi ulardan to'g'ri , oqilona va tejamli foydalana olishlari uchun ham juda zarurdir. Shu sababli bugungi yosh avlodga maktab partasidayoq dastlabki kimyoviy bilim va tushunchalar puxtaroq o'rgatilishi lozim. SHuningdek ,zamonaviy yosh kimyogarning kimyoviy jarayonlarni teranroq anglashlari uchun ham, fizik ham matematik bilimlar qonunlar va qonuniyatlarni chuqurroq bilishlari va tatbiq eta olishlari ayni muddaodir.

Prezidentimiz Islom Karimov takidlaganlaridek : “Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan soxasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz.[6]

Mustaqillika erishganimizning dastlabki kunlaridan davlatimiz raxbari tomonidan axolining turmush farovonligini yanada oshirish, yosh avlodni sog'lom baquvvat va barkamol qilib o'stirish, fuqarolarning munosib xayot kechirishlarini ta'minlash ishlariga aloxida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining “O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida, xafsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli kitobining birinchi bobida ekologik muammolarni atroflicha tahlil etib, respublikamizning

XXI asrda hal qilinishi kerak bo'lgan global muammolarni ko'targan. Bu muammolar har bir kishini o'ylatadi, har birimizga ma'suliyat yuklaydi.

Ekologik xafsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ayniqsa, hozirgi fan-tehnika rivojlanishi davrida ishlab-chiqarishning har qanday o'sishi, atrof-muhitning yanada ifloslanishiga olib kelmoqda.

Ekologik muammoning turli jihatlarini tadqiq etib, ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning ta'kidlashlaricha, hozirgi zamon fanlarining deyarli hammasida ekologik jihatlar bor bo'lgan o'ziga hos muhim muammolar ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z navbatida, turli fanlar matodlarining tobora bir-birlariga yaqinlashib, sifat jihatdan yangi xossa va xususiyatlarni o'zida ifodalagan bilimlar tizmasini yuzaga keltiradi. Bu bilimlar ekologik dunyo qarashni shakillanib borishining muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Kimyo darslarida ekologik ta'lim vatarbiya berishni har bir darsda amalga oshirish mumkin. Bunda har bir darsning mazmunidan kelib chiqqan holda mahalliy materiallardan foydalangan tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Maktab kimyo darslarida dars mavzusiga oid ekologik bilimlar berish orqali o'quvchilarni atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakillantirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Ona tabiatni asrab-avaylash tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish har bir qarich yerni qadrlash antropologen omillarning tabiatga talofat yetkazishdan saqlanishda bor imkoniyatlarni ishga solish ekologik bilimlarni doimiy rivojlantirib borish va ekologik madaniyatli, tabiatga atrof muxitga ongli munosabatda bo'lishga xarakat qilish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

**Mavzuning dolzarbligi:** Xozirgi davrda fan va texnika kimyo sanoatining rivojlanishi atrof muhitni ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan ekologik muammolarni ijobiy xal etish har bir fan o'qituvchisini oldida turgan vazifalardan biridir mavzuning dolzarbligi kimyo darslarida ekologik ta'lim va tarbiya berish orqali o'quvchilarni atrof muxitga ma'suliyatli munosabatda bo'lish ruxida tarbiyalashga qaratilganligi bois dolzarblidir.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi:** Ushbu mavzu bo'yicha bajarilgan ishlar ma'lum darajada qilingan bo'lsada tezkor bitiruv malakaviy ishida kimyo darslarida ekologik ta'lim tarbiya berish yo'llari talqin etgan xolda tarixiy va mahalliy materillardan foydalanib prezidentimiz asarlarida bayon etilgan ekologik muammolarni xal etish yo'llari asosida o'quvchilarni atrof muxitga ma'suliyatli munosabatda bo'lish yo'llari ilk bor o'rganilmoqda.

**Adabiyotlar taxlili:**Mavzu yuzasidan adabiyotlardan o'rinli foydalanilgan. Bunda prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan ta'limga oid xalq ta'limi jurnali, uzluksiz ta'lim jurnali ta'lim texnologiyalari jurnali kimyo darsliklari o'quv dasturi DTS Ozbekiston Respublikasining tabiatini muxofaza qilish to'g'risidagi qonunlari ma'rifat gazetasi ilmiy-amaliy konferensiya materillari ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

**O'rganishning ahamiyati.** Xozirgi davrda atrof- muxitning turli hil kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishi ortib bormoqda shu sababli har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga albatta ekologik bilimlarni berish va shu asosda ekologik madaniyatni shakllantirish tabiatni asrab avaylab saqlash atrof muxitga ma'suliyatli munosabatda bo'lish yo'llari bevosita kimyo darslarida ochib berilganligi axamiyatga molikdir.

**Tadbiq etilish darajasi:**Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar taxlilar kuztishlar tavsiyalar maktab kasb-hunar kollejlari akademik litsey kimyo, biologiya zologiya fani o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi sanitariya-epidomologiya markazi xodimlari tabiatni muxofaza qilish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar o'z ishlarida foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining strukturasi.** Bitiruv malalakaviy ishi: Kirish va 3ta bobdan iborat bo'lib I-bob Respublikamizda ekologik muammolar va ularni yaxshilash yo'llari, II-bob kimyo darslarida o'quvchilarni tabiatga atrof – muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish yo'llari, III- bob o'quvchilarni ekologik bilimlarini o'rganish yuzasidan tajriba sinov o'tkazish va uning taxlili xulosa va foydalanilgan adabiyotlar internet ma'lumotlaridan iborat bo'lib bitiruv malakaviy ishi 57ta saxifadan iborat bo'lib bunda 6ta jadval 2ta rasmlardan iborat.

## **I-BOB. Respublikamizda ekologik muammolar va ularni yaxshilash yo'llari.**

### **1.1 Respublikamizning ekologik muammolari**

Ekologik muammo daeganda insonning tabiatga korsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, xayotida xo'jalik axamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy xodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, xayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday xodisa tushuniladi

Inson farovonligi, uning manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar va amaliy mexanizmlarni yaratish xamda qulay ekologik sharoitlarni ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan isloxotlarning bosh maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchidir.[7]

Shu maqsadda o'tgan yillar davomida mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida muxim tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy xuquqiy tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshiriladiki ko'rilgan chora tadbirlar atmosfera xavosining ifloslanish darajasini kamaytirilishi asosiy ochiq suv oqimlarini yaxshilash pestisidlarning qo'llanilishini qisqartirish ekin maydonlarining tuzilishini yaxshilanishi kabi mustaqillika erishganimizga qadar mavjud bo'lgan milliy ekologik muammolarni xal etish imkonini beradi.

Tabiatni muxofaza qilish tabiiy resuslardan oqilona foydalanish xar qanday davlatining kelajakda iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishining istiqbollarni uning atrof-muxitga ta'sirini xisobga olgan xolda ko'rib chiqish xamda iqtisodiy ekologik siyosatning uyg'unlashuviga e'tiborini qaratish lozimdir.

O'zbekistondagi ekologik muammolar. Bugungi kunda Mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintqa bo'lib kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik energetika kimyo oziq-ovqat sanoati transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muxofaza qilishga oid muammo quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan hududlar Angren Olmaliq-Chirchiq Farg'ona – Marg'ilon Navoiy va boshqa xududlarni tabiatni muxofaza qilish muammolari.
  2. Orol va Orolbo'yi muammolari suv resuslarini muxofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish.
  3. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.
  4. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisidlar va mineralo'g'itlar bilan ifloslanishi.
  5. O'simlik va xayvonot dunyosini muxofaza qilish va qayta tiklash muammolari qo'riqxonalar milliy bog'larini kengaytirish va boshqalar.
- O'zbekiston respublikasi tabiatni muxofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategic maqsadlari quyidagilar hisoblanadi.

Axolining sixat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish biosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ko'zlagan holda tabiiy resuslardan oqilona foydalanish; tabiatni qayta tiklash xususiyatlarni tiklash landshaftlarini xilma-xilligini saqlash.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash davlat darajasidagi muxim vazifalardan biridir.

Ekologik muammolarni hal etish maqsadida davlat tomonidan atrof-muxitni muxofaza qilish tabiiy resuslardan oqilona foydalanishning dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur bo'yicha davlat 1995 yilda respublikamizning barcha xududlarida atrof-muxitning holatini yomon ekologik axvoldagi zonalarning sifatini yaxshilashning ta'minlash; 2010 yilga borib axvoli salomatligi uchun xavfli bo'lgan moddalarni shaxar atmosfera havosiga havosiga va suv xavfzalarida ruxsat etilgan o'rtacha darajaga yetkazish; 2015 yilga borib respublikada ekologik axvolini tubdan yaxshilash, bunda zararlangan tabiiy muxit va uning ayrim tarkibiy qismlari xamda ekologik tizimlarni muvozanatga keltirish uchun maxsus tuzilgan dastur bo'yicha ishni amalga oshirish. Ekologik tomondan xavfli korxonalar va ishlab chiqarishni qayta qurish zamonaviy uskunalar bilan almashtirish ishlarini amalga oshirish.

Aholining ekologik ta'lim va tarbiya sohasidagi savodxonlik darajasini ko'tarish. Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish kompleksini o'zlashtirish, tog'-kon sanoati maxsulotining yillik xajmini oshirish, tashqi muxitga zararli ta'sirini kamaytirish.

Suvlarni muxofaza qilish iqlona foydalanish aqsadida ifloslanishining oldini olish, ilg'or texnologiyani yaratish.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq xalokatli ekologik-iqtisodiy va ijtimoiy axvolni yaxshilash yo'llari davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlarining xalq xo'jaligini rivojlantirishning kompleks barqaror rivojlanish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Orol dengizini suvini saqlab qolish maqsadida axolini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini i/ch va har bir respublikaning Orol dengiziga kuya oladigan suvi, ya'ni (yiliga 20-21km) Orol bo'yidagi barcha tabiiy qo'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Atmosfera xavosini muxofaza qilishning asosiy yo'nalishi shaxar va axoli yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, sanitar-gigienik normativlarga erishish, respublikaning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiya yaratish. O'rmon ekotizimlari axvolini yaxshilash o'rmonlarni saqlash uchun birinchi

navbatda rejali ish yuritish: o'rmon resuslarini tiklash, muxofaza qilishda biologic uslublarni qo'llash dorivor o'simliklarni sanoat miqiyosida i/ch, o'rmonlar uchun monitoring tizimini qo'llash aviatsiya yordamida o'rmonlarni muxofaza qilish.[8]

Hayvonot olamini saqlash uchun kamida 3ta qo'riqxonalar tashkil etish. Baliqlar zaxiralarini ko'paytirish, noyob hayvon turlarini ko'paytirish. Kurort zonalar, dam olish, turizm zanalarining talablariga rioya qilish. Tabiiy davolash resuslari, landshaftlar, suv obyektlari, o'simliklar xolati ustidan monitoring tizimini i/ch va tashkil etish. Nurlanish xafi bor obyektlarni ruxsatsiz ishga tushirmaslik. Nurlanish xavfi to'g'risida tezkor xabar beruvchi tizimni ishlab chiqish.

Tabiat va uning maxsulotlari inson uchun ekan, ulardan oqilona va odilona foydalanish kerak. Yerga, suvga, xayvonlarga, nabototga bo'lgan munosabatimizni tiklashimiz orqaligina Ona tabiatimizni asrab-avaylab qolishimiz mumkin. Yuqorida bildirilgan barcha fikrlarni maktab kimyo, biologic darslarida o'quvchilarga yetkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **1.2 Farg'ona regioning ekologik muammolari.**

Boshqa hududlardagi kabi Farg'ona vodiysida xam ekologik vaziyat murakkab hisoblanadi. Buning obyektiv sabablari bor. Obyektiv sabablaridan biri, vodiyning Geografik o'rni qaysiki u chuqurlikda joylashib to'rt tomondan balan tog'lar bilan o'ralganligidir.

Qaysiki bunday xolat atmosferaning almashinib turishiga (sirkulli) olib kelmaydi. Kop kimyo va turli sanoat korxonalarini va boshqa joylardan atmosfera chiqarilayotgan chiqindi gazlar kimyoviy birikmalar stratosferaning kirishib ularning zaxarli xolatlari yanada ortadi. To'rt tomoni bois ular yana tuman atmosfera yog'inlari bilan yerga qaytib tushadi, va atrof – muxitni ifloslantiradi.

Vodiyning demografik, urbanizatsiya va industrial jarayonlarining jadal suratlar bilan o'sib borishi ham o'z navbatida atrof tabiiy muxitni ifloslanishiga omil bo'lmoqda. Ekologik qonuniyatlarga ko'ra axoli va boshqa butun tirik mavjudotlarining tuemush tarsi va salomatligi bevosita muxit va muxit omillari ta'siriga bog'liq.

Shuning uchun ham xalqimizning turmush tarzini yaxshilash, sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirishda atrof-muxitning sof bo'lishligiga erishish asosiy vazifalardan bo'lishi kerak. Farg'ona vodiysida aholining zich joylashganligi, ekiladigan maydonlarning ko'plamigi va o'rmonzorlarning kamligi ham ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Vodiyning bir qancha sanoatlashgan shaharlari mavjud bo'lib ularda qator kimyo sanoatlari, avtomobilsozlik, elektrotexnika, oziq-ovqat, paxta

tozalash yog'-ekstraksiya neftni qazib olish va qayta ishlash va boshqa tarmoglari mavjud. Ushbu va boshga sanoat korxonalarini tomonidan chigarilayotgan chigindi moddalar atmosfera, gidrosfera va tuproq qatlamlarini ifloslantirib biosferamizning muhim komponentlari hisoblangan flora va faunamiz hayot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada yana viloyatlarimizda soni va salmog'I doim ortib borayotgan transport vositalarining ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

Atmosferaning ifloslanishida dunyo bo'yicha transport vositalarining ulushi 40% tashkil qiladi, bu raqam bizda bir muncha yuqori. Eng muhimi avtotransport tugunlaridan chiqadigan gazlar qurulmaning eng yomoni benz(a) piren bo'lib ular kanserogen ya'ni saraton kasali o'simtalairini keltirib chiqaradigan omillardan sanalar ekan. Avtotransport vositalaridan chiqayotgan kanserogen moddalar 10-75% ga ko'paygan. Ta'kidlanishicha saraton kasali bilan og'rish ko'payib bormoqda, bu kasallik ekologik omillar noqulay bo'lgan joylarda ko'proq uchramoqda.[9]

Farg'ona vodiysi chegarasida Namangan viloyatining Pop tumanida "Chorkesar-23" 2 va 3-sonli uran koni manbaini radioaktiv chiqindilar joylashtirilgan va ular tuproq bilan ko'milgan omborxonalarda saqlanmoqda. Ushbu joylarda atmosfera yog'inlari tufayli sel kelishi va ularni oqizib ketishi mumkin. Natijada radiounukleidlari (uran, radiy, radon) yuzaga atrof-muxitni ifloslantirishi mumkin.

Respublika bilan transchegaraviy hududlarda joylashgan radioaktiv chiqindilar vodiy va qolaversa butun O'zbekiston respublikasi atrof-muxiti va axolisi uchun kata radioaktiv xatar uyg'otadi.

Ma'lumki Andijon viloyati chegarasidagi Mayluu-Suu daryosi xavzasidagi ashirsoy, Kulmansoy va atlas soylar atroflarida 23 ta radioaktiv chiqindilarni ombori saqlash joylari va radioaktiv tog' tashlashlari mavjud. Ushbu hududlar ham suv va shamol eroziyasi tufayli buzilib, surilmalar xosil bo'lishi va yuqoridagi radioaktiv chiqindilar oqib Sirdaryoga quyilishi va atrof-muxitni jiddiy ifloslantirishi mumkin. Bu joyda monitoring nazorati o'rnatilgan bo'lishiga qaramay bari bir xatarli zona bo'lib qoladi. Bu joyda monitoring nazorati o'rnatilgan bo'lishiga qaramay bari bir xatarli zona bo'lib qoladi. Ushbu radioaktiv chiqindilarni joylashgan nuqtalarni 2guruxga ajratish mumkin. 1. Xavfni bartaraf etish uchun kechiktirib bo'lmaydigan kritik xolatdagi joylarga № 3,5,7,13 va 18 omborlar kiradi. Ayni paytda mustaxkamligi nisbatan talab darajasida bo'lgan №1,2,4,6,8,9,10,11,12,14,16,17,19,20,21,22,23 chiqindi omborlari kiradi.

Farg'ona viloyati, qolaversa butun vodiy uchun yana bir ekologik nosoz muxit-bu Janubiy farg'ona geoximiya provinsiyasi xisoblanib u

shohimar-don daryosining yuqori qismida va Haydorkondagi (Qirg'iziston respublikasida) inson va boshqa mavjudotlar hamda O'simliklar uchun zarali va zaxarli bo'lgan surma va simob konlarining mavjudligidir. Mavjud xududlardagi Chauvay va Haydarkon konlarida qazib olinadigan va Qadamjoyda qayta ishlanadigan (boyitiladigan) og'ir metal hisoblangan simob moddasi tuproq suv o'simlik va xayvonlar faoliyatiga salbiy ta'sir etadi.

Farg'ona shaxri turli sanoat tarmoqlari rivojlangan sanoat tugunidir. Shahar xududida joylashgan turli sanoat korxonalarini tabiiy muxitga kuchli ta'sir ko'rsatib axoli uchun noqulay geokologik sharoitni vujudga keltiradi. Farg'ona sanoat tugunida joylashgan neftni qayta ishlash zavodi kimyoviy tolalar ishlab chiqarish zavodi suniy chirm ishlab chiqarish zavodi gaz quyish stansiyalari issiqlik elektr markazi kabi korxonalar shu kunlarda tabiiy muxitning komponentlari bo'lgan xavo suv va tuproq qoplaminin turli zarali chiqindilar bilan kuchli ifloslanishiga olib kelmoqda natijada barcha tirik mavjudotlarga xavf tug'dirishiga sabab bo'lmoqda. Bu sanoat korxonalaridan tabiiy muxitga ammiak otingugurt angidridi fenol uglevodorod vodorodsulfid aseton zod ikki oksidi qurum chang metan neft va neft maxsulotlari hamda ba'zi bir zararli chiqindilarning ruxsat etilgan meyordan bir necha barobar ko'p chiqarilmoqda. Natijada Farg'ona shaxri nafaqat farg'ona vodiysida balki respublikamiz miqiyosida ham geologik iflos xududlar ichida eng oldingi o'rinlaridan birini egallaydi.[10]

Farg'ona sanoat korxonalarining tuproq hamda yer usti va yer osti suvlarini ifloslanishidagi ishtiroki ham juda yuqoridir. Bu borada neftni qayta ishlash zavodining o'rni aloxida ahamiyatga egadir. Neft mahsulotalari bilan tuproq qatlamini ifloslanishi undagi turli fizik- kimyoviy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, tuproq mikroelementlari tarkibi o'zgaradi, suv – havo rejimi va oksidlanish rejimi buziladi. Bundan tashqari tuproqdagi uglerodd va azotning normal nisbati o'zgarib kislorod fosfor va azot yetishmasligi kelib chiqadi. Buning oqibatida tuproqning agrokimyoviy hususiyatlari yomonlashadi, ekinlar o'sishi sekinlashadi. Tuproq tarkibidagi neft miqdori 400-1000t/gad an oshganda undagi mikroorganizmlar faoliyati tuproqning nafas olish intensivligi susayadi.

Farg'ona sanoat zonasi ta'sir doirasidagi tuproq qoplaminin ifloslanishida nafaqat sanoat korxonalarini, balki boshqa xojalik tarmoqlari, shaxsiy xojaliklar ham faol ishtirok etmoqda. Bunda qishloq xo'jaligini ahamiyati kata. Chunki qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirishda meyordan ortiq mineral o'g'itlardan foydalanish shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida turli ximikatlardan tartibsiz foydalanish ham tuproqdagi kimyoviy elementlarning miqdorini ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Farg'ona shahri sanoat zonasi ta'sir doirasidagi ifloslangan tuproqlarni quyidagi guruxlarga bo'lishimiz mumkin: a) Neft maxsulotlari bilan ifloslangan tuproqlar. Bunday tuproqlar Farg'ona sanoat zonasining shimoliy qismida joylashgan bo'lib bunda tuproqlarni neft mahsulotlari bilan ifloslanishda neftni qayta ishlash zavodining ahamiyati kata. Shuningdek, tuproq qoplaminig neft maxsulotlari bilan ifloslanishida yer osti suvlarining ham ta'siri beqiyosdir. Ulardagi neft maxsulotlarining bug'lanishi natijasida tuproqning gaz tarkibi buzulib biosenozlar o'zgaradi; b) atmosferadagi turli birikmalar bilan ifloslanayotgan tuproqlar. Bunday tuproqlar asosan hududning shamollar yo'nalishiga mos ravishda tarqaladi. Hududning shamollar yo'nalishi shuni ko'rsatadiki shamollar sanoat zonasining shamol shimoliy-sharq, sharq, janubiy-g'arb, janub tomonlardan eng kam esadi, bu esa yo'nalishdagi atmosfera tarkibidagi zararli kimyoviy elementlarning kam maydonga tarqalishiga sabab bo'ladi. Natijada atmosfera tarkibidagi zararli kimyoviy elementlar zaxarli gazlar va changlar to'planib atmosferada ro'y beradigan turli meteorologik jarayonlar tufayli tuproq qoplamiga kelib qo'shilishiga sabab bo'ladi; v) IEM chiqindilar bilan band yerlardagi ifloslanayotgan tuproqlar.

Farg'ona issiqlik energetika markazining shimoliy qismida tashkil etilgan axlatxonasiidagi kulshkal, qurum va boshqa ko'plab chiqindilarning to'planishi oqibatida.

Sanoat korxonalarida va ularning atrofida zararli chiqindilarning to'planishi ularning ta'siri suv va tuproqqa singishini kamaytirish maqsadida jumladan havoning kimyoviy ashyolar bilan zaxarlanishning oldini olish uchun ular atrofida balki Respublikamizda tang geologic vaziyat xukm surayotgan hududlardan bo'lib bunga asosiy sabablardan biri Farg'ona shaxrida qator kimyoviy sanoat korxonalarining qurilishidir.

Farg'ona vodiysining orografik tuzilishi atmosfera sirkulitsiyasini birmuncha qiyin kechishiga sabab bo'ladi. Bu esa sanoat korxonalaridan atrof-muxitga chiqarilayotgan turli kimyoviy birikmalar zaxarli gazlar va changalar atmosfera ro'y beradigan turli meteorologik jarayonlar tufayli tuproq qoplamiga kelib qo'shilishiga sabab bo'ladi. Demak, sanoat korxonalarining atrof- muxitga ta'sirini kamaytirish uchun ularni ishlab chiqarishdagi faoliyatini meteorologik elementlarining xolatiga mos holda tartibga keltirish lozim. Chunki kuchli tumanli bulutli kunlar harorat inversiyalari kuzatilayotganda bu korxonalarining to'liq quvvat bilan ishlashlari atrof-muxitning ifloslanishi bir necha marotaba ortishiga sabab bo'ladi.

Farg'ona shahri atmosfera xavosini turli ingredientlar bilan kuchli ifloslanishini oldini olish maqsadida mavjud sanoat korxonalaridagi texnologik qurilmalarning eski mdelni o'rniga yangisini qurish ulardan chiqarilayotgan

gazlarni tozalovchi qurilmalarni yangilab, mo'rilar balandligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Farg'ona – Marg'ilon sanoat tumanida neft maxsulotlari va fenollar bilan yer suvlarining o'ta ifloslanishi REM dan yuz barobarga ortganligi qayd qilingan .Toshkent viloyatida ham yer osti suvlarining o'ta yuqori ifloslanishi kuzatilmoqda.O'zbekiston Respublikasida suvlardan oqilona foydalanish maqsadida ilg'or tajribalar joriy qilinmoqda.Tomchilab sug'orish, suvlardan takror foydalanish oqavalarni tozalash shular qatoridandir. Suvlarni me'yoridan ortiq ifloslanganligi uchun jarima va to'lovlar belgilangan.[11]

O'zbekiston Respublikasida suvdan maxsus ("Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" 1993-yil 6-may) qonun asosida amalga oshirilmoqda. Suvlardan oqilona foydalanish va suv xavzalarini ifloslanishdan saqlashni ta'minlashda keng jamoatchilikning ishtiroki ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirishning ahamiyati kattadir. Orol va Orolbo'yi muammolarni hal qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlikda ish olib borishmoqda. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlar, BMT, Jahon banki va boshqa turli davlat va nodavlat xalqaro tashkilotlari bu asr muammosini ijobiy hal qilishga o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Ayniqsa hozirgi fan-texnika rivojlanishi davrida ishlab chiqarishning har qanday o'sishi atrof-muxitning yanada ifloslanishiga olib keladi.Farg'ona regionini kimyoviy birikmalar, jumladan, og'ir metallar bilan ma'lum darajada ifloslangan regionlardan biridir.Sababi, bu yerdagi kimyoviy korxonalar ma'lum darajada Farg'ona xududini ifloslanishiga olib keladi.

Farg'ona Gidromet boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra viloyatda atmosfera havosini ifloslanish darajasi ayniqsa dioksidi ammiak gazlarining miqdori ruxsat etilgan meyordan 1,25 marta ortiq bo'lmoqda.

Atmosfera havosini dunyo bo'yicha ifloslanishini quyidagi raqamlar orqali bilib olish mumkin. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda atmosferaga har yili dunyo bo'yicha 210 mln.t.is.gazi, 50mln,t,gazsimon uglevodorodlar 260mln.t oltingugurt oksidlari 2mln.dan ziyod kulsimon chiqindilar chiqariladi. Farg'ona shaxri va shaxar atroflarida o'suvchi turli daraxt barglari ayniqsa chinor barglari tarkibida qo'rg'oshin simob qadimiy kabi og'ir metallar ko'p bo'lib, barglarni aslo yoqishga yo'l qo'ymaslik zarur. E'tibor bering, hazon tarkibida 1g uglerod yonganda tabiatga 350g CO gazi tarqaladi. Bu raqamni o'n yuzlarga ko'paytirib ko'ring.Bu gazlar salomatligimizga nechog'lik salbiy ta'sir etishini o'ylab ko'raylik.[12]

Regionning ekologik holatini yaxshilash avvalo ifloslanish holatini ifloslanish xolatini aniqlash uning ta'siridan kelib chiqadigan oqibatlarni oldindan belgilash va ularni bartaraf etishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Bu ma'suliyatli vazifani bajarishda o'quvchilarga talabalarga va barcha yosh avlodga berilayotgan ekologik ta'lim va tarbiyaning mazmuniga hamda uni amalga oshirish usullariga bog'liq bo'ladi.

Farg'ona viloyati respublikada sanoati yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri bo'lib unda yirik sanoat korxonalari Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasi, Farg'ona Furan birikmalari kimyo zavodi (Xozirda faoliyat yuritmaydi), quvasoy sement xissadorlik jamiyati Farg'ona "yog'-moy" xissadorlik jamiyati Farg'ona kimyoviy tolalar zavodi va boshqa korxonalar joylashgan. Bu korxonalar yiliga turli zaxarli moddalarni atmosferaga chiqarib yuboradi va ular shamol va oqava suvlar orqali atrof-muxitni ifloslantiradi.

2011yilning oktabr oyida Prezidentimiz I.A.Karimovning viloyatimizga qilgan tashrifida va viloyat faollari bilan bo'lgan uchrashuvda viloyat markazi bo'lmish Farg'ona shahrini tubdan qayta –qurish va rekonstruksiya qilish dasturi haqida atroflicha to'xtalgan edi.

Ana shu majlisda bildirilgan fikr – muloxazalar, amaliy takliflar asosida Farg'ona shaxrining bosh rejasini amalga oshirish, 2012-2015 yillarda ijtimoiy va transport – kommunal infratuzilma obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha maxsus dastur qabul qilingan edi.

Ushbu dastur ijrosi uchun barcha manbalar xisobidan 1tirillon so'mdan ko'proq mablag' sarflash ko'zda tutilganini o'zi bu borada amalga oshiriladigan ishlarning ko'lami va miqiyosi naqadar kata ekanini ko'rsatib turibdi.

Dastur ijrosini amalga oshirish Fargona shaxrini ekologik toza bilan keng ishlar amalga oshirilmoqda jumladan Farg'ona shahrining markazida joylashgan: Farg'ona yog'-moy zavodi Farg'ona Furan birikmalari zavodi TES korxonalari shaxar markazidan ko'chirildi.

14 dekabr 2012 yilda Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining navbatan tashqari sessiyasida Prezidentimiz so'zlagan nutqida ishlab chiqarish soxasi oldida turgan vazifalar haqida so'z yuritib o'tgan davrda ishga tushirilga quvvatlar birinchi navbatda eng zamonaviy Texnologiyalarga ega bo'lgan korxonalar maxalliy xom-ashyo avvalambor qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash negizida chet ellik ishbilarmonlar bilan xamkorlikda barpo etilgan qo'shma korxonalar faoliyatini atroflicha taxlil etdi.

Keyingi vaqtda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi 89 million AQSh dollari xajmidagi investisial va kreditlar asosida tubdan modernizatsiya qilingani Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasiga qariyb 95 mln dollarlik investisiya jalb etilib uning saloxiyati keskin oshirilganini ta'kidlash lozim.

Shular qatorida ohirgi besh yilda Quvasoy sement "Kvars" Qo'qon superfosfat Qo'qon mexanika zavodi kabi 10dan ortiq yirik sanoat korxonasida

128 million dollardan ziyod investitsiya mablag'I sarflanib modernizatsiya ishlari amalga oshirilgani albatta e'tiborga loyiq.[13]

Keyingi 2yil ichida Farg'ona regioning ekologik xolati ancha yaxshilanganligi suv va atmosfera xavosini kimyoviy taxlili natijalari asosida bilish mumkin.

Tabiatga ma'suliyatli munosabatda bo'lish uni muxofaza qilish nixoyatda kata va murakkab ishdir. Bu soxadagi tadbir va choralarni yo'la amalga oshirish uchun keng jamoatchilik albatta jalb qilinishi kerak.[14]

### **1.3 Atmosfera havosiga kimyo korxonalarining ta'siri**

Sanoatning o'sishi katta hajmda chiqindilar ajralib chiqish jarayoni bilan birga boradi, chunki sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun talab etiladigan hom-ashyoni faqatgina 1/3 qimi sarf bo'ladi 2/3 qismi esa yordamchi mahsulot va chiqindi sifatida yo'qotiladi.

Atmosfera havosini eng ko'p ifloslantiruvchi elementlar: uglerod, azot, oksidlari, uglerodlar, va sanoat changlaridir. Sanoat issiqlik elektrostansiyalari va transport vositalari atmosferani asosiy ifloslantirish o'chog'laridir. Yer yuzi atmosferani yiliga o'rtacha 250 million tonna chang, 200mln. tonna uglerod, 50mln tonna azot oksidi va 5 mln tonna turli xildagi uglevodorodlar tashlanadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda 460 mln donadan ortiq avtomabillardan foydalanilmoqda. 15000 km masofani bosib o'tgan har bir mashina 4350 kg kislota chiqaradi, shu bilan birga 3250 kg uglerod dioksidi, 530kg uglerod oksidi, 93 kg uglevodorodlar, 27 kg azot oksidi ajratib chiqaradi.

Umuman olganda sanoatning turli tarmoqlarini zararli chiqindilar o'chog'i sifatida taxlil qilinganda quyidagi natijalar olindi.

1. qurilish materiallari sanoati.....34,7%
2. Issiqlik elektrstansiyalari.....39.5%
3. Avtotransport.....15.8%
4. Qora metallurgiya.....12.4%
5. Kimyo sanoati.....4.6%
6. Rahgli metallurgiya.....2.2%
7. Neftni qayta ishlash.....0.5%
8. Boshqa tarmoqlar.....0.3%

Sanoatning rivojlanishi axoli va barkamol avlod turmush sharoitining o'sishi bevosita muhitning ekologik holati bilan bog'liqdir. Sanoati yuksak darajada rivoj topgan mamlakatlar o'z navbatida ko'plab ekologik muamolarga ega bo'ladi. Sanoatning o'sishi uchun krrak bo;ladigan zavod, fabrika va transport vositalari shahar atrof muhitining ifloslanishiga sabab bo'ladi. Bu holatni o'z shahrimiz va mamlakatimiz O'zbekiston misolida ko'rib chiqmiz. O'zbekiston hududi havo

havzasining zaharlanishi jihatidan 3 mintaqaga bo'linadi. 1-mintaqa Amudaryoning quyi qismi .Qizilqum . Zarafshoning quyi qismi va cho'llardan iborat bo'lgan hududlar kiradi. Bu joylarda respublikamizning boshqa hududlariga nisbatan atmosferaning zaharlanishi 2.5-2.8 barobar ko'pdir. 2-mintaqa O'rta zarafshon vodiysi, Qashqadaryo , surxondaryo va o'rta Sirdaryonong bir qismini qamrab oladi.

Sirdaryoda GES ning joylashishi , Samarqand va Qashqadaryoda yengil va oziq –ovqat sanoati , tabiiy resurslarni qazib olish , gaz, metallarni qayta ishlash, kimyo va qurilish sanoati , Surxondaryo yaqinidagi qo'shni Tojikistonda joylashgan „ Alyuminiy zavod’’larining salbiy ta'siri bu mintaqalarning „ Atmosferani zaharlovchi mintaqalar ‘’ deb atalishiga sabab bo'lmoqda.

Bu jarayonlarni kengroq tushintirish maqsadida 3- mintaqa „Farg'ona vodiysi’’ haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu mintaqa o'zining sanoat korxonalaridan chiqarilayotgan chiqindi gazlar evaziga eng zaharlimintaqa bo'lib hisoblanadi.

Farg'ona shahri sanoat markazi bo'lib qadimdan aholisi zich joylashgan .unda sanoat sohasi ko'p qirralidir.Birgina Farg'ona shaxrining Qirguli mavzesida bir nechta zavodlar mavjud bo'lib , bu sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi gazlar miqdori me'yoridan yuqoridir. O'zbekiston Davlat hisoblash markazining ma'lumotlariga ko'ra bir yilda Farg'ona hududiga jami chiqarilayotgan chiqindi gazlar va zaharli aralashmalar miqdori 3. 21 mln tonnani tashkil qilingani ko'rsatilgan.

Atmosferaga o'zining eng ko'p chiqindi gazlarini chiqarayotgan soha bu kimyo sanoati bo'lib, yiliga atmosferaga 230 ming tonna , uglerod oksidi va uning changei 40-50 ming tonna, oltingugurtli va azot oksidli gazlar 20-35 ming tonnani tashkil qiladi, shahrimizning atmosfera havosiga „ Issiqlik energiyasi’’ ishlab chiqaruvchi korxonalar (TAS), „FNQIZ’’ , Farg'ona azot’’ va „Farg'ona sun'iy charm’’ zavodlarning ta'siri katta bo'lib , bundan o'z navbatida hududimizning havo, suv, tuproq, va insonlarga salbiy ta'sirini kuzatishimiz mumkin. Insonlar nafas olish a'zolari sil, o'pka raki, o'pka yallig'lanishi, bronxit, yurak qon tomir va allergik kasallarga duchor bo'lmoqda.Bu esa zaharli gazlarning hayotimizga salbiy ta'sirini yaqqol namunasi hisoblanadi.

Farg'ona shahrining ham havo, suv va tuproq resurslarining ifloslanib borayotganligi ko'pchilikka sir emas. Farg'ona shahrida harakatdagi va turg'un manbaalardan atrof-muhitga 14 xildagi Respublikamizda faqat Toshkent shahridan keyinda turadi) zararli moddalar chiqariladi va bu zararli chiqindilarni ichida eng ko'p tarqalgani sanoat chiqindilari. Oltingugurt oksidi, formaldegini,

azot II oksidi amiak 3-4 benz(a) piren va boshqalardir. Farg'ona vodiysida sanitariya zonalarini tashkil qilish talab etiladi. Lekin shaharning o'ziga xos tabiiy hususiyatlarini to'liq inobatga olgan holda, ularni sanoat korxonalari atrofida tashkil qilishning ilmiy asosini ishlab chiqish zarurdir. Quruq iqlim sharoitida sanoat korxonalaridan fekuçapf chiqayotgan chiqindilar ta'sirini inobatga olgan holda ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Shaharlardagi atmosfera havosiga chiqarilatotgan chang va gaz miqdorlarini kamaytirishga erishish .zararli chiqindilarni suv va tuproqqa singdirishni kamaytirish maqsadida turli xil chora- tadbirlar belgilanmoqda bu esa sanitariya –muhofaza zonalarini tashkil qilishda sanoat korxonalarining atrof-muhitga chiqarayotgan chiqindilarning kimyoviy tarkibi va qattiq moddalar turini e'tiborga olgan holda loyihalashtirish va joylashtirish lozim. Chunki sanitary himoya zonasidagi o'simliklar bevosita shu korxonalardan chiqaralayotgan chiqindilarga chidamli bo'lgan o'simliklardan tarkib toppish lozim.

Farg'ona shahri atmosfera havosini turli ingridentlar bilan kuchli ifloslanishini oldini olish maqsadida mavjud sanoat korxonalaridagi texnologik qurilmalarning eski modelini o'rniga yangisini qurish, ulardan chiqarilayotgan gazlarni tozalovchi qurilmalarni yangilab mo'rilar balandligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek shahar ichida joylashgan kimyo sanoat korxonalarini chetga chiqarish ham muhim omillardan biridir. Bu sohada dastlabki keng ko'lamli ishlarga amalga oshirilmoqda. Farg'ona yog' moy zavodi, furan birikmalari zavodlari shahardan ko'chirildi.

## **II- Kimyo darslarida o'quvchilarni tabiatga, atrof- muhitga masuliyatli munosabatni shakllantirish yo'llari.**

### **2.1 Ta'lim va ekologiya kelajakni asosini belgilaydi.**

Bugun yurtimizda "Ta'lim to'g'risidagi" "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" har bir darsimiz uchun dasturilamal bo'ladi.

Avvalo ta'lim doimo ijodkorlik yangilik intilish fidoyilikni talab qiladi. Ayniqsa umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari qo'llanmalar nizomlar yaratishda bolalar bilimni yanada mukammallashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim mazmuniga uslubiy mukamallikka yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ilg'or tajribalardan ijodiy foydalanishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Umum o'rta ta'lim va oliy maktablarda dars berishdagi eski uslubdan og'zaki bayonchilikdan butunlay voz kechish lozim. Bugun esa quyidagilarga qat'iy amal qilishimiz muqimdir.

Yurtimiz uchun yoshlar kerak. Shundagina Vatanimizda ham moddiy, ham ma'naviy baquvvat yurtga aylanadi. Buning uchun esa bolalarga

yoshligidan aloxida e'tibor berishlik ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi shu Vatan muqaddas ekanligi tug'ilgan yurtiga xiyonat qilishlik Vatanpurishlik gunoxi azim ekanligini doimo singdirib boorish burch bo'lmog'I kerak. Buning uchun quyidagilarga e'tibor beriladi: darslarda sen shuni o'rganishing kerak deyilmasdan. Endigi bo'lajak mutaxassis men shuni bilishim kerak, degan fikr hayotida bosh mezon bo'lib qolishi kerak.

Ekologiya – bugun dunyoviy umuminsoniy muammoga aylandi. Biz esa xanuz tabiatning rivojlanish qonuniyatlarni hisobga olmay qo'ydik. Fan- texnika taraqqiyotiddan ma'lum darajada ham yer osti yer usti boyliklarimizdan ertangi kunni o'ylamay foydalanmoqdamiz. Ekologiyamizning buzilishida ayniqsa boshqa regionlarga nisbatan bizda gerbisidlarni va pestisidlar yerga ko'plab ishlatdik. Natijada tabiat boyligimiz bo'lgan yerimizning tarkibi buzilib hosildorlik kamayishiga sabab bo'ldi. Ekologiyaning yomonlashuvi inson salomatligiga, irsiy kasalliklarni vujudga kelishiga olib keldi. Bu jarayoni davolashning asosiy vositasi tabiatning o'zidir. Toza tabiat shifobaxsh suvlar o'simliklar dunyosi insoniyatning beminnat davolovchi laboratoriyalar. Ularni ko'paytirish saqlash ularning yaxshilanishiga malxam bo'lishlik bizning insoniy burchimizdir.

Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilishlik amaliy bilimlarni shakllantirish salohiyatli kadrlarni yetkazish zaminidir. Ilmiy yutuqlar kadrlarni Xalqaro tajriba almashinuvi ilmiy ijodiyotga intilish tashabbuskorlik kunlik ish extiyojiga aylanmog'i kerak.

-Bugungi muxim vazifalardan yana biri yuqori malakali o'qituvchi va tarbiyachilarni yetkazishni kechiktirib bo'lmaydigan alohida e'tibor beroladigan muammodir.

- Rivojlangan horijiy mamlakatlarning kadrlar tayyorlashdagi yutuqlari milliy hususiyatimizni hisobga olib o'zimizda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi darajali vazifamiz: berilayotgan har bir bilim va ko'nima yoshlarning oldiga muammo qo'ysin, ular atroflicha mushohada qilishsin; ma'lumki biz bugun demokratik, huquqiy ve fuqarolik jamiyati qurar ekanmiz, milliy o'zligini anglash, boy miliy tariximizga qaytishimiz; atrof-muhitga, tabiatga munosabatda xalqimizning etnopsixologiyasida to'liq foydalanish: tabiat I'nomlarini muqaddas hisoblash ajdodlarimiz(non,suv,o'simlikni, jonzotlarni) ilohiy deb e'zozlaganlar. Ularga ozor bermaganlar; yuqori malakali kadrlar tayyorlash, milliy tizimimizni yaratish: ta'lim tizimini bugungi kundagi o'zgarishlar bilan bog'lash; bugungi kun fan yutuqlaridan murabbiylar o'z darslarida o'rinli foydalanish va ularning ilmiy salohaiyatini oshirishda dunyo fanlarining yutuqlaridan ijodiy foydalanish zarur bo'lib qolmoqda.

Mustaqillika erishgan yurtimizning har bir fuqarosiga ekologik madaniyatini singdirish muqaddas burchimizdir. Endi hamma boyliklar tabiat inomlari, yer

